



PROFESSOR R.KH. MURTAZAEVA "HISTORY OF INTERETHNIC RELATIONS AND TOLERANCE" SCIENTIFIC SCHOOL

Ozoda Ivanovna Khayitova

Master's student in History

Oriental University

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: History of Uzbekistan, development of science, doctor of historical sciences, history of the period of independence, female scientists, pedagogical activity, author of textbooks, scientific research, role of women in science, professor of UzMU.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

Abstract: Professor Rahbar Murtazayeva is a well-known scientist and pedagogue who made a great contribution to the development of the history of Uzbekistan. During her academic career, she paid great attention to the study of the history of our country, in particular, the socio-political events and processes of the period of independence. Her works are based on a deep analysis of historical processes and are created in order to share scientific and practical knowledge with the future generation. R.H. Murtazayeva occupies an important place in the science and education system as the author of educational manuals and textbooks on the "History of Uzbekistan". Her works are important not only for students and teachers, but also for researchers who want to understand historical events in depth. Professor Murtazayeva, as an active member of the "Olima" women's association of Uzbekistan, was active in promoting the role of women in science and supporting the new generation of scientists. She made a great contribution to the development of the science of history not only through scientific works, but also through pedagogical activities. This article is written by R.Kh. It was written in order to glorify Murtazayeva's scientific and pedagogical activities, to recognize her contribution to the science of our country.

PROFESSOR R.H. MURTAZAYEVANING "MILLATLARARO MUNOSABATLAR VA BAG'RIKENGLIK TARIXI" ILMIY MAKTABI

Ozoda Ivanovna Xayitova

Tarix mutaxassisligi magistranti

Oriental Universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: O'zbekiston tarixi, ilm-fan taraqqiyoti, Tarix fanlari doktori, mustaqillik davri tarixi, ayol olimalar, pedagogik faoliyat, o'quv qo'llanmalar muallifi, ilmiy tadqiqotlar, xotin-qizlarning ilm-fandagi roli, O'zMU professori..

Annotasiya: Professor Rahbar Xamidovna Murtazayeva O'zbekiston tarix fanining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan taniqli olim va pedagogdir. U o'z ilmiy faoliyati davomida mamlakatimiz tarixi, xususan, mustaqillik davrining ijtimoiy-siyosiy voqealari va jarayonlarini o'rganishga katta e'tibor qaratgan. Uning asarlari tarixiy jarayonlarning chuqur tahliliga asoslanib, kelajak avlodga ilmiy va amaliy bilimlar ulashish maqsadida yaratilgan. R.X. Murtazayeva "O'zbekiston tarixi" bo'yicha o'quv qo'llanmalari va darsliklarining muallifi sifatida ilm-fan hamda ta'lim tizimida muhim o'rin egallaydi. Uning asarlari nafaqat talaba va o'qituvchilar uchun asosiy manba, balki tarixiy voqealarni chuqur tushunishni istagan tadqiqotchilar uchun ham katta ahamiyatga ega. Professor Murtazayeva O'zbekiston xotin-qizlar "Olima" uyushmasining faol a'zosi sifatida ayollarning ilm-fandagi o'rnini targ'ib qilishda va yangi avlod olimlarni qo'llab-quvvatlashda ham jonbozlik ko'rsatgan. U tarix fanining taraqqiyoti uchun nafaqat ilmiy ishlar, balki pedagogik faoliyat orqali ham ulkan xizmat qilgan. Mazkur maqola R.X.Murtazayevaning ilmiy va pedagogik faoliyatini ulug'lash, uning mamlakatimiz ilm-faniga qo'shgan hissasini e'tirof etish maqsadida yozildi.

НАУЧНАЯ ШКОЛА ПРОФЕССОРА Р.Х.МУРТАЗАЕВОЙ «ИСТОРИЯ МЕЖНАЦИОНАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ И ТОЛЕРАНТНОСТИ»

Ozoda Ivanovna Xayitova

Магистрант по специальности «История»

Восточный университет

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: История Узбекистана, развитие науки, доктор исторических наук, история периода независимости, женщины-ученые, педагогическая деятельность, автор

Аннотация: Профессор Рахбар Хамидовна Муртазаева – известный ученый и педагог, внесший большой вклад в развитие истории Узбекистана. За свою академическую карьеру он уделял большое

учебников, научные исследования, роль женщин в науке, профессор УзМУ.

внимание изучению истории нашей страны, в частности, общественно-политических событий и процессов периода независимости. Его работы основаны на глубоком анализе исторических процессов и созданы с целью поделиться научными и практическими знаниями с будущим поколением. Р.Х. Муртазаева занимает важное место в системе науки и образования как автор учебных пособий и учебников по «Истории Узбекистана». Его работы важны не только для студентов и преподавателей, но и для исследователей, желающих глубже разобраться в исторических событиях. Профессор Муртазаева, являясь активным членом женского объединения Узбекистана «Олима», вела активную работу по пропаганде роли женщин в науке и поддержке нового поколения ученых. Он внес большой вклад в развитие исторической науки не только научными трудами, но и педагогической деятельностью. Эту статью написал Р.Х. Оно было написано в целях прославления научной и педагогической деятельности Муртазаевой, признания ее вклада в науку нашей страны.

Kirish. Rivojlangan jamiyatlarda madaniyatlik darajasi xotin-qizlarga bo'lgan munosabat va ular uchun yaratilgan imkoniyatlarga qarab belgilanadi. Bu o'z navbatida milliy an'analarga va shu bilan birga umumbashariy qadriyatlarga asoslangan bo'lmog'i darkor. Har qanday xalqning ma'naviy darajasini avvalo shu yurt ayollarining ma'naviy saviyasi belgilaydi. Mamlakatimizda ayolga bo'lgan munosabat o'z tarixiy ildizlariga ega. Ajdodlarimiz doimo ayollarni qadrlashga, ularga nisbatan hurmat va izzatda bo'lishga da'vat etishgan. Ma'rifatparvar bobolarimiz "Ayol yuksalsa – yuksalur bashariyat", deb bejiz aytishmagan. Bu ko'hna tarix To'maris, Saroymulkxonim, Nodirabegim, Gulbadanbegim, Uvaysiy, Dilshod otin, Anbar otin, Zulfiya singari yuzlab mo'tabar ayollarimizning millat sha'ni, or-nomusini saqlash yo'lidagi jasoratlariga guvohdir. Momolarimizga xos bo'lgan noyob fazilatlar zamonamiz ayollari siymosida ham davom etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Ayoli e'zozlangan yurt – qudratli bo'ladi".

Mustaqillik yillarida ayolni ulug'lash, unga hurmat va ehtirom ko'rsatish, ilm-fan taraqqiyotiga hissa qo'shayotgan olim xotin-qizlar safini kengaytirish va ayollarning barcha jabxalardagi iqtidorini rag'batlantirishga Davlat rahbarlarimiz va xukumatimiz tomonidan katta

e'tibor qaratib kelinmoqda. Ana shu e'tibor bugunning ayollari jahon miqyosidagi nufuz va martabaga, qadr qimmatga sazovor bo'lmoqda.

Zamonaviy ma'rifatparvar ayol deganda, milliy an'analarimizga sodiq ravishda taraqqiyotga intilayotgan, tashabbuskor va tashkilotchi, ayollik maqomini tadqiqotchilik, etakchilik, ustozlik faoliyati bilan uyg'unlashtirgan bugungi kun qahramonlari ko'z oldimizga keladi. Vatanimizning eng oliy mukofoti – "O'zbekiston Qahramoni", shuningdek "Xalq o'qituvchisi", "Xalq shoiri", "Xalq artisti" unvonlariga sazovor bo'lganlar orasida ayollar ko'pchilikni tashkil etadi. Akademik, professor, fan doktori maqomiga ega xotin-qizlarimiz O'zbekiston ilm-fani taraqqiyotiga munosib hissa qo'shmoqdalar. Shunday tarixchi olim ayollardan:

Yusupova Dilorom Yunusovna – tarix fanlari doktori, professor, Mukminova Roziya Galievnna – tarix fanlari doktori, Ishanxojaeva Zamira Rayimovna – tarix fanlari doktori, Yunusova Xurshida Erkinovna- tarix fanlari doktori, professor, Ismailova Jannat Hamidovna – tarix fanlari doktori, professor, Ziyayeva Dono Hamidovna – tarix fanlari doktori, professor, Ballieva Roza – tarix fanlari doktori, professor, Alimova Dilorom Agzamovna – tarix fanlari doktori, professor, Agzamova Gulchehra Azizovna – tarix fanlari doktori, Abdullaeva Yaxshibeka Atamuratovna – tarix fanlari doktori, dotsent.

Vatan manfaati yo'lidagi buyuk tarixiy voqeliklar, yangiligi o'zgarishlar va bunyodkorliklar yuz berishining garovi hamda asosidir. Bunga tarixda misollar ko'p. Hozirgi Mirzo Ulugbek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti dunyoga kelishida buyuk insonlar sadoqati va fidoyiligi sabab bo'ldi. Uning asosiy bunyodkorlari buyuk millatparvar jadid ziyolillariyu ulamolari, rus olimlari bo'lgani tarixga ma'lum. Ular davr taqqozosiga ko'ra, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida ilk bor hozirgi zamon tushunchasidagi dunyoviy oliy ta'lim g'oyasini olg'a surib, buning uchun buyuk sadoqat va fidoyilik namunasini kursatdilar. Ular matbuotda chop etilgan maqola va yozilgan asarlarida Turkistonda oliy ta'lim, ilm-fan uchun ehtiyoj paydo bo'lganligini targ'ib-tashvid etdilar. Bularning ta'siri va samarasi ularoq, sovet hokimiyati 1918 yilda hozirgi O'zMUning ikki muhim tarixiy ildizi va asoslarini yuzaga kelishiga sharoit yaratishga majbur buldi. Shu yili 21 aprelda Toshkentda Turkiston xalq universiteti va uning musulmon bo'limi - Musulmon xalq dorilfununi esa 12 mayda rasman tashkil etildi. Bu universitet unga o'z umri, butun ilmi va hayot faoliyatini baxshida etgan ko'plab sadoqatli va fidoyilarning zaxmati bilan yildan-yilga tobora takomil topdi va nixoyat, mustaqillik sharofati bilan birinchi Prezident Islom Karimovning tashabbusi va 2000 yil 28 yanvardagi maxsus Farmon bilan "Mirzo Ulugbek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti", deb qayta nomlandi. Bu bilan mazkur oliy dargox, rasman O'zbekistondagi barcha millatlarning milliy ko'rki, g'ururi va iftixoriga aylandi.

Bugun bu universitet minglab o'z fidoyilarining beminnat mehnatlari evaziga bir asrdan oshib turibdi. Bu o'tgan davrda u juda katta geografik mintaqadagi davlat va xalqlarning oliy

ta'limi, ilm-fani, aql-zakovati takomil topishiga behad katta tarixiy hissa qo'shdi. Ikkinchi tomondan universitet o'tmishda behisob sadoqatli va fidoiylarni tarbiyalovchi qutlug' maskan sifatida faoliyat yuritdi. Uning bag'rida barcha sohalarning minglab o'z sadoqatli fidoyilari ta'lim-tarbiya olib voyaga etdi. Bularni jamlab, umumiy sonini aniqlashning iloji yuq.

Umumiy tasavvurga ega bulishimiz uchun juda muhim va real bir tarixiy voqelikni ko'z oldimizga keltirishimiz maqsadga muvofiq. Bu hozir universitetda ko'p yillardan beri unumli faoliyat yuritib kelayotgan 43 ta ilmiy maktab va ularning o'z kasbiga sadoqati, kuchli bo'lgan fidoyi asoschilari bo'lmish, elga va dunyoga tanilgan olimlarimizdir. Bu ilmiy maktablarda yuzlab ustozu shogirdlar uyushib, universitetning yuksak maqomi va sha'niga munosib ravishda sadoqat va fidoyilik ko'rsatib kelmoqdalar. Mana shunday olimlardan biri tarix fanlari doktori, professor Raxbarxon Xamidovna Murtazaevadir. Olima o'z kasbi, ishi va vazifasiga bulgan fidoyilik, shu oliy dargohning tarix fakultetida tahsil olgan (1967-1972), aspirant va katta ilmiy xodim bo'lib, tarix fanidan tadqiqot olib borib, nomzodlik (1975) va doktorlik (1990) dissertatsiyalarini o'z vaqtlarida ximoya qilgan paytlarida to'la -to'kis shakllanib takomil topdi. 1980 yilda dotsent va 1993 yilda professor ilmiy unvonlariga ham sazovor bo'ldi.

Raxbarxon Xamidovna tinimsiz izlanish, ilmiy-tadqiqiy mehnati evaziga 1972-2008 yillar oralig'ida, 36 yil davomida o'zining ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan "Millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik tarixi" ilmiy maktabini yaratdi. Bu olim uchun, avvalo, ota meros. Otalari Xamid aka ham o'z fidoyiligi va buyuk insoniyligi evaziga xalq hurmatiga sazovor bo'lib, eng mas'uliyatli lavozimlarda ishlagani hozirgi katta yoshdagi kishilarga ham, tarixga ham, bizga ham ma'lum.

R.X.Murtazaevadagi o'z kasbi va ishi hamda atrofidagi hamkasblar, insonlarga bo'lgan samimiy sadoqatlilik va fidoyilik aslida unga ota-onasidan o'tgan irsiyat mahsulidir. Bu buyuk insoniy xislatlar uni 17 yoshida o'z bag'riga olgan oliy dargoh-universitetdagi yuksak ilm-fan, ma'naviyat va ma'rifat, intellektual tafakkur bilan uygunlashishi asnosida asta-sekin yuqori takomilga ega bulib, o'zining yangidan-yangi qirralarini namoyon etib kelmoqda. U universitetda kamol topib, uning yuqori va eng mas'uliyatli lavozimlari, ya'ni Gumanitar fakultetlar buyicha prorektor (1995- 2000), Ma'naviy-ma'rifiy va gumanitar ta'lim buyicha birinchi prorektor (2000-2004) bulib ishlagan. Rahbarxon Xamidovna doimo universitetning yuksak maqomi va sha'niga munosib ravishda mustahkam sadoqat hamda fidoyilik bilan faoliyat yuritdi.

R.X.Murtazaeva dastlab 1995 yildan 2000 yilgacha universitet Gumanitar fakultetlari buyicha prorektor bulib ishlagani e'tiborga olinsa, davr talabi bilan paydo bo'lgan muammolarni hal qilinishi uning rahbarlik faoliyatiga bog'liq bo'lganini osongina anglash mumkin bo'ladi. Universitetdagi "o'tish davri"dagi barcha qarama-qarshilik va qiyinchiliklar o'z vaqtida to'g'ri

yo'ldan oqilona hal etildi. Bu esa, universitetning azaliy yuksak mavqei tiklanib, u Vatanimiz oliy ta'limi tizimida etakchi o'ringa ega bo'lishini ta'minladi.

Professor R.X.Murtazaeva o'z lavozimi bo'yicha Respublikada Oliy ta'lim isloxoti va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da belgilangan vazifalarni, eng avvalo, O'zMU hayotiga tatbiq etishda o'zining katta hissasini qo'shdi

Respublikamizdagi to'ng'ich oliy o'quv yurti hisoblangan O'zbekiston Milliy universiteti mamlakat miqyosidagi asosiy ilm fan maskanlaridan biri bo'lib, o'n yillar davomida nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osiyo, MDH, va uzoq xorij mamlakatlari uchun ham qator mutaxassis kadrlar etishtirib bergan. Ushbu oliy dargohda o'zbek ilm-fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan, nomlari jahon ilm ahli uchun yaxshi ma'lum bo'lgan qator olimlar faoliyat ko'rsatib, xozirgi kunga kelib ham ular mustaqil respublikamizning ilm-fan taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar.

Mustaqillikning o'tgan yigirma uch yili ichida Milliy universitetda 43 dan ziyod ilmiy maktablar faoliyat kursatayotganligini ma'lum. Shulardan biri - tarix fanlari doktori, professor R.X.Murtazaevaning "Millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik tarixi" ilmiy maktabi hisoblanadi.

Ilmiy maktab tushunchasi va masalasi yuzasidan jaxonda tan olingan yondashuv va mezonlar mavjud. Ilmiy maktab tegishli ilmiy yo'nalish sohasida fanning mazmun-mohiyati, uning tahlili, asosiy tushunchalari bo'yicha umumiy qarashga, ilmiy nazariya, g'oyani tayanch hisoblab, bu borada tadqiqot olib borayotgan, faoliyat yuritayotgan olim, mutaxassis, tadqiqotchilarning ilmiy uyushmasi hisoblanadi. Ilmiy maktab asoschisi ilgari surgan g'oya, fikrlarni yangicha yo'nalishda uning shogirdlari davom ettirib, ilmiy maktab ko'lamini kengaytirib boradilar.

Ilmiy maktabni faqat xaqiqiy ilm fidoyilari, fanga o'z umrini baxshida etgan, noyob ilmiy iqtidor, tegishli qobiliyat, zamonaviy mushohada, chuqur aqliy salohiyatga ega, dunyoqarashi keng, ma'naviyati yuksak darajada bo'lgan olimlarga yarata olishga qodir bo'ladilar. Ma'lumki, fanning biror bir sohasida ilmiy maktab yaratish har bir olimdan ulkan ilmiy salohiyat, bilim, mehnat, sabr-toqat, o'z sohasiga samimiy mexr va sadoqat hamda tashkilotchilikni talab etadi. Bunday ilmiy maktablar millat va insoniyat manfaati yo'lida xizmat qilib, xalq va millatning faxriga aylanadi. Shuning bilan birga, ular millat va xalqni dunyoga tanitadi.

Professor R.X.Murtazaevaning ilmiy maktabi - millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik tarixiga oid muhim va hamisha dolzarb masalalar majmuini urganmoqda. Millatlararo munosabatlar va bag'rikenglikning tarixiy ildizlari asrlar qa'riga borib taqaladi. Bu tarix hamisha va hamma vaqt insoniyat uchun juda ham hayotiy ahamiyat kasb etuvchi masala bo'lib kelgan. Shuning uchun ham mazkur ilmiy maktabda alohida e'tibor berilib, bu sohaga yirik olim va yosh

tadqiqotchilarning diqqat-e'tibori hamda ilmiy-intellektual bilimlarini maqsadli ravishda yunaltilishi hozirgi davr talabiga mosdir.

Mazkur ilmiy maktab olimaning keng miqyosda olib borayotgan ilmiy-tashkiliy va hamkorlikdagi faoliyati samarasi bo'lib xalqaro miqyosda ham o'zini tobora keng ilmiy jamoatchilik oldida ham namoyon etmoqda. Bunga shu maktabning o'zi doirasida chaqirilgan bir necha xalqaro ilmiy anjumanlar, O'zbekistonda o'tkazilgan o'nlab xalqaro konferensiyalarda faol qatnashib, millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik tarixi hamda shu sohadagi hozirgi eng dolzarb masalalar echimiga ilmiy jamoatchilikning e'tiborini qaratayotganligi juda ham muhim ahamiyatga molikdir. Bu o'rinda R.X.,Murtazaeva 2008 yil may oyida Pekinda joylashgan Millatlar Markaziy universitetining Etnologiya va sotsiologiya instituta tomonidan "O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik" mavzusida ma'ruza uqishga taklif etildi. Olima 13 kun davomida mazkur institutning magistrant, aspirant, doktorant va milliy masala bilan shug'ullanuvchi mutaxassislariga bir qator ma'ruzalar o'qidi, shuning bilan birga, ular bilan davra suxbatlari va seminarlar o'tkazdi.

R.X.Murtazaeva o'z ma'ruza va suxbatlarida O'zbekistondagi millatlararo munosabatlardagi barqarorlik, 130 dan ortiq milatlatlarning tinch-totuv yashashi, bag'rikenglik o'zbek xalqiga xos fazilat ekanligi, demografik masalalar, migratsiya va uning xususiyatlari, davlat tili va tarix fanidagi o'zgarishlar haqida keng hamda batafsil ma'lumotlar berdi. Bu esa professor R.X.Murtazaeva yaratgan ilmiy maktab Xitoy mutaxassislari tomonidan tan olindi.

Tarix fanning zamonaviy dolzarb muammolarini nazariy tahlil qilish, ayniqsa, millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik masalalarining ilmiy-amaliy va ma'naviy-ma'rifiy asoslarini yaratish bilan bog'liq tadqiqotlarni ro'yobga chiqarish maqsadida R.X.Murtazaevaning tashabbusi bilan O'zbekistan Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligining buyrug'i asosida "O'zbekistan tarixi" Davlat ta'lim standarti va ixtisosligi o'quv rejasiga 2007-2008 o'quv yilidan boshlab, "O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik" maxsus kursi asosiy fan sifatida o'qitilishi joriy qilindi. R.X.Murtazaevaning Millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik tarixi ilmiy maktabi, ikkinchi tomondan, boshqa fanlar bilan tutashib o'zaro hamkorlikda fanlararo yunalish sifatida ham rivojlanmoqda. Tarix fakultetining O'zbekiston tarixi kafedrasida tarix fanlari doktori, professor Raxbarxon Xamidovna Murtazaeva asos solgan "Millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik tarixi" ilmiy maktabi o'z qamrov darajasini kengaytirgan holda o'ziga xos ilmiy taraqqiyot pog'onasini boshlab berdi.

Olima o'z jamoaviy aql-zakovatiga ega bo'lib, jamoatchilikka qo'shilgan yillari - talabalikdan boshlaboq, hozirga qadar jamoat ishlariga katta muruvvat kursatib xayrixohlik bilan uzluksiz ravishda faoliyat yuritib kelmoqda

Professor R.X.Murtazaevaning jamoatchilik faoliyati quyidagi davlat va nodavlat jamoat tashkilotlari bilan uzviy bog‘liqlikda tarixga aylangan: 1. O‘zMU qoshidagi 07.00.01-O‘zbekistan tarixi buyicha K.067.00.01. raqamli Ixtisoslashgan kengash. 2. O‘zbekistan “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi. 3. Oliy va o‘rta maxsus talim yunalishlari bo‘yicha birlashmalar faoliyatini muvofikdastiruvchi kengashning “Gumanitar fanlar ta’limi yunalishi” buyicha o‘quv-uslubiy komissiyasi. 4. O‘zbekistan Respublikasi Baynalmilal markazi. 5. O‘zbekistan Respublikasi xotin-qizlar kumitasi 6. O‘zbekistan Xotin-qizlar “Olima” uyushmasi.

Jamoatchilikka asoslangan faoliyatning muruvvatli fidoyisi professor R.X.Murtazaeva umummilliy va davlat ahamiyatiga molik vazifani bajaruvchi nufuzli jamoatchilik Komissiyasiga 2008 yilda rais etib tayinlandi. Mana shundan buyon oliy va urta maxsus ta’limi rivoji va takomiliga jamoatchilik faoliyatini yunaldirish ishiga rahbarlik qilish bilan sezilarlik darajada hissa qo‘shib kelmoqda. Bu o‘rinda biz Komissiya ekspertizasidan o‘tib chop etilgan ko‘pdan ko‘p, yangidan yangi gumanitar fanlariga oid darslik, o‘quv qo‘llanmalarini nazarda tutmoqdamiz.

Raxbarxon Xamidovna olima ayol sifatida Italiya, Koreya, Angliya, AQSh, Rossiya, Ukraina kabi bir qator xorijiy mamlakatlarda o‘tkazilgan xalqaro ilmiy anjumanlarning ishtirokchisi, muntazam o‘tkazib kelinayotgan «Bag‘rikenglik — jamiyat barqarorligining asosi» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumanining tashkilotchisidir. U milliy istiqloq g‘oyasini yoshlar ongiga singdirish, yoshlarning ilg‘or tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash hamda ijtimoiy-gumanitar fanlar oldidagi dolzarb muammolarni o‘rganish, ularni zamon talablari asosida rivojlantirish, pedagogik ilg‘or texnologiyalarni ta’lim tizimiga joriy qilishdek murakkab vazifalarni amalga oshirishda yuksak tajribaga egadir. Mustaqillik yillarida R.X.Murtazaevaning tashabbusi bilan Toshkent Davlat universiteti qoshida gimnaziya va mazkur gimnaziya asosida akademik litsey tashkil qilindi. O‘zbekiston Milliy universitetida ijtimoiy-gumanitar fakultetlar, kafedralar va ilmiy yo‘nalishlarning ochilishida R.Murtazaevaning shaxsiy ishtirokini alohida qayd etish lozim. Raxbarxon Xamidovna 2001 yildan Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi deputati, Kengashning ijtimoiy-madaniy rivojlanish masalalari bo‘yicha doimiy komissiya a‘zosi hamda Toshkent shahar Xotin-qizlar qo‘mitasi qoshidagi xotin-qizlar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy va madaniy ishlarni olib boruvchi uyushma raisidir. U O‘zbekiston Milliy universiteti qoshida inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha vakillik (Ombudsman) organini tashkil etishda faollik ko‘rsatdi. R.Murtazaeva mahallalarda huquqiy madaniyatni, huquqiy tarbiyani shakllantirish, fuqarolarning huquqlarini himoya qilish hamda huquqiy savodxonlikni oshirishga yo‘naltirilgan bepul xizmat ko‘rsatuvchi «Yuridik klinika»ni tashkil qilishda tashabbuskor bo‘ldi.

Respublikamizning mustaqil taraqqiyot yo‘li mamlakatimizda ilm-fan rivoji uchun keng imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. Fanning barcha sohalarini zamon talablariga mos tarzda moddiy-texnik resurslar bilan ta’minlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Ilm-fanni rivojlantiruvchi

intellektual salohiyati egalari bo'lmish olimlar, jumladan olimalarning ijtimoiy faolligi bu davrga kelib yanada oshdi. Mamlakatimizda istiqloqlarning dastlabki yillaridanoq xotin-qizlarning ilmiy, ijodiy faoliyatini qo'llab-qo'vvatlashga yunaltirilgan nodavlat notijorat tashkiloti O'zbekiston xotin-qizlar «Olima» uyushmasi 1992 yili Respublikaning bir guruh, ilm-fan fidoyilari, olimalari hamda jamoat arboblari tomonidan tashkil etildi.

UzRFA akademigi, kimyo fanlari doktori, professor Sayyora Sharafovna Rashidova uyushmaning birinchi raisi sifatida uzoq yillar davomida faoliyat ko'rsatdi. Mazkur davrda ilm-fan natijalarini ishlab chiqarishga tadbiiq etish jarayoni yo'lga qo'yildi, xalqaro aloqalar rivojlandi. O'zbekiston xotin-qizlar "Olima" uyushmasi 2009 yildan boshlab t.f.d., professor R.X.Murtazaeva rahbarligida o'z faoliyatini olib bormoqda. Professor R.X.Murtazaeva nafaqat Fanlar Akademiyasi tarmog'ida ishlayotgan olimalarni, balki butun respublika oliy o'quv yurtlari, o'rta maxsus ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatgan olimlarni ham uyushma ishiga jalb qildi. Professor R.X.Murtazaeva rahbarligida "Olima" uyushmasi O'zbekistondagi barcha olimalarni jiplashtirib, hamjihatlik va ahillik bilan faoliyat yuritishni asosiy shior qilib olgan. Uyushmaning asosiy maqsadlaridan biri - Respublikada shakllangan ilmiy salohiyatdan foydalangan holda yosh avlodni ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish, qizlar orasida ushbu g'oyani targ'ib qilib, etakchi va yosh olimalarni ilmiy yutuqlarini Respublika va xorijdagi ilmiy markazlarda keng targ'ibot qilish, ularga ilmiy salohiyatini rivojlantirishda ko'maklashish hisoblanadi.

Bugungi kunda Respublikada jami 6 ta akademik, 478 ta fan doktori va 4000dan ziyod fan nomzodi ilmiy darajasiga erishgan ayollar fan taraqqiyotining turli sohalarida ilmiy faoliyat olib bormoqdalar. Uyushma a'zolarining sa'y-harakatlari bilan Respublika buyicha mamlakatni modernizatsiyalash va demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviy yangilanish, kasbiy kamolot, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni tarbiyalash kabi mavzularda davra suhbatlari va konferensiyalar o'tkazilmoqda.

Xulosa. Rahbar Xamidovna Murtazaeva qo'lga kiritgan ilmiy tadqiqot natijalari, fan yutuqlari o'zbek xalqi faravonligini yuksaltirishga qaratgan bo'lib, yosh avlodni tarbiyalash, O'zbekistonning ilmiy salohiyatini oshirish ishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelmoqda. R.X.Murtazaeva yaratgan ilmiy maktablarning o'ziga xosligi shundaki, uzoq yillar davomida milliy va millatlararo munosabatlari hamda bag'rikenglik masalasi bilan jiddiy shugullanib, hozirda tarix fanida ta'sirli nufuziga ega bo'lgan va ilmiy jamoatchilik tomonidan tan olingan o'zining ilmiy maktabini yarata oldi.

R.X.Murtazaeva maktabining quyidagi jihatlari uning ilmiy-amaliy nufuzini belgilab turibdi. Birinchidan, bu maktab nafaqat O'zbekistonda, Markaziy Osiyo va Afg'oniston balki butun jahonda ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik masalalarini o'rganayotganligi bilan e'tiborga loyiq. Ikkinchidan, professor R.X.Murtazaeva bu

umuminsoniy, muhim masalaga ham alohida, ham kompleks holatda yondashishi, mavjud tarixiy voqealarni chuqur tahlil qilish hamda bu sohadagi “shubhali” jarayonlarni ilmiy asosda baholash imkonini bermoqda. Uchinchidan, olimaning iqtidorli shogirdlarining soni tobora kupaymoqda. Bular mazkur ilmiy maktabning o‘z qamrov darajasini kengaytirgan holda o‘ziga xos ilmiy taraqqiyotni boshlab berdi va kelajagi yanada porloq ekanligi va uzluksiz rivojlanishidan dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekistonning fidoyi ayollari. I kitob. G‘oya muallifi Muxtabar Karimova «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh taxriri, Toshkent – 2005
2. O‘zbekistonning ma‘rifatparvar ayollari. 1 jild. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti davlat korxonasi, Toshkent – 2021
3. Milliy universitetda kechgan hayot mazmuni. Mas’ul muxbirlar M.M.Xaydarov, A.A.Odilov. - Toshkent: Mumtoz so‘z -2015
4. O‘zbekistonlik tarixchi olimalar ayollari. 2 jild Mas’ul muharrir: Murtazaeva Rahbar Xamidovna, Toshkent “Renessans press” -2024
5. Murtazayev R.X. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008.
6. Murtazayev R.H. Bag‘rikenglik – barqarorlik garovi. – Toshkent: Fan, 2012.
7. <https://akademiklar.uz/murtazayeva-rahbarxon>
8. <https://uzolima.uz/>
9. <https://marifat.uz/ru/rubriki-vnutrenniy/zenshhina-nesushhaia-svet-znaniy-strixi-k-portretu-574>